

“TASDIQLAYMAN”

Andijon davlat universiteti rektori
A.S. Yuldashev

2017 y.



“Oliy ma’lumot haqidagi diplomni tasdiqlash” interaktiv xizmati reglamenti

1. Xizmat tarifi

1.1. Xizmat nomlanishi:

Universitet rasmiy veb sayti orqali “Oliy ma’lumot haqidagi diplomni tasdiqlash”

1.2. Xizmat natijasi:

Universitetni tamomlaganligini tasdiqlovchi hujjatning haqqoniyligi tasdiqlanadi yoki rad etiladi

1.3. Xizmat ko’rsatuvchi organlar:

- Andijon davlat universiteti

1.4. Huquqiy asoslari:

- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalashning yagona axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risidagi”gi 2015- yil 17- dekabrdagi 365- sonli qarori;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat va xo’jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuridik va jismoniy shaxslar bilan o’zaro hamkorligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2007 yil 23 avgustdagagi 181-son qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar:

Jismoniy va yuridik shaxslar

1.6. Ariza berish muddatlari:

Muddati cheklanmagan

1.7. Bajarilish muddatlari:

1-3 kun

2. Xizmatdan foydalanuvchilarga ma’lumot taqdim etish

2.1. Ma’lumot tarkibi va hajmi:

Mazkur xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan har qanday foydalanuvchiga quyidagi axborot taqdim etiladi:

- universitet joylashgan joy, ish tartibi, murojaatlarni ko’rib chiqish shartlari va tartibi haqidagi ma’lumot;
- xizmatdan foydalanish uchun talab etiladigan hujjatlar ro’yxati;
- ariza blankasini to’ldirish tartibi haqida ma’lumot;
- xizmatdan foydalanish muddatlari;
- xizmatning reglamenti mavjudligi to’g’risida ma’lumot.

2.2. Batafsil ma’lumot olish:

Andijon davlat universiteti rasmiy veb sayti orqali

2.3. Xizmat ko’rsatish manzili haqida ma’lumot olish:

Andijon shahar, Universitet ko’chasi 129-uy

3. Ish vaqtleri va murojaat javoblarini kutish vaqtleri

3.1. Ish vaqtleri:

Xizmat ko’rsatuvchining ish vaqtি dushanba-shanba kuni soat 9⁰⁰ dan 17⁰⁰ga qadar.

3.2. Kutish shartlari:

1-3 kun

4. Xizmat ko’rsatish tartibi

4.1. Zarur bo’lgan hujjatlar:

- ERI (elektron raqamli imzo);
- jismoniy shaxsnинг shaxsiy identifikatsion raqami(PINFL)

4.2. Xizmat to'lovi:

Bepul

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari:

Universitet rasmiy sayti orqali xizmat ko'rsatish bosqichlari:

1. Universitet rasmiy veb saytiga kiritiladi;
2. "Interaktiv xizmatlar" bo'limidan "Oliy ma'lumot haqidagi diplomni tasdiqlash" xizmati tanlanadi;
3. Arizachining shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) kiritiladi;
4. Diplom seriyasi va raqami kiritiladi.

4.4. Xizmat ko'rsatishning ichki idoraviy jarayoni:

Universitetni tamomlagan talabalarning diplom ma'lumotlari oldindan universitet ma'lumotlar bazasiga kiritilgan bo'ladi va foydalanuvchi tomonidan kiritilgan diplom seriyasi va raqami ma'lumotlar bazasidan avtomatik ravishda tekshiriladi va ma'lumotnomma electron nusxasi shakllantiriladi.

Agar murojaat etuvchi tomonidan so'ralsan ma'lumotlar diplomlar bazasidan topilmasa, ro'yxatdan o'tgan electron pochta manziliga bu haqda ma'lumot mas'ul xodim (mas'ul xodimning F.I.SH., lavozimi telefon raqami) tomonidan jo'natiladi. Mas'ul xodim qayta tahlil qilgandan keyin, so'ralsan ma'lumotlar universitetda mavjud bo'lsa, 3 (uch) kun ichida bazaga kiritiladi, aks holda so'ralsan ma'lumotlar topilmaganligi haqida xabar jo'natadi.

4.5. Rad etish sabablari:


- diplom seriyasi va raqami to'g'ri kiritilmaganligi;
- jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqami (PINFL) noto'g'ri kiritilganligi;

5. Xizmat ko'rsatish sifati.


5.1. Shikoyat arizasini berish tartibi:

Rad etish hollarda arizachi yuqori turuvchi tashkilotga qonunda ko'rsatilgan tartibda murojaat etishi mumkin.

"KIRITILDI"

Xodimlar bo'limi boshlig'i

“ 01 ” 11 E.Ablazov 2017 y.

"KELISHILDI"

Axborot texnologiyalari markazi rahbari

“ 01 ” 11 v.v.b. N.Mirzaalimov 2017 y.